

Tong yulduzi

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N:48 (67109)
2016-yil
28-noyabr

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092

OBUNA - 2017

TAHRIRIYATDAN QO'NG'IROQ QILYAPMIZ

Xorazm viloyatiga safarimiz oldidan hamisha viloyat Xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari Bahodir aka Tillayev bilan qo'ng'iroqlashamiz. U kishidan viloyat maktablarida yutuqlarga erishayotgan o'quvchilar haqida bilib olgach, ular bilan uchrashishni rejalashtirib olamiz. Bu gal esa bosh mavzu - «Obuna - 2017» yuzasidan gurgunglashdik.

- Viloyatimizda ayni chog'da barcha o'quvchilar o'zlari sevgan nashrlariga qizg'in obuna bo'lishmoqda, - dedi Bahodir aka har doimgidek o'ktam ovzoda.

- Keyingi yillarda gazetamizga obuna bo'lishda viloyat o'quvchilarining faollashib borayotganini alohida ta'kidlamoqchimiz. 2017-yil obunasida ham bu yanada keng davom etadi, shundaymi?

- O'quvchilarimiz ko'plab nashrlar qatorida «Tong yulduzi»ga alohida e'tibor berishayotganlari bizni ham quvontiradi. Chunki gazeta orqali mamlakatimizdagi yoshlarning har bir yutug'idan xabardor bo'lib, ularga o'xshashga intiladilar. Shu bois, gazeta bilan ijodiy hamkorlikni yanada kuchaytirish niyatidamiz.

Bahodir aka bilan telefon orqali gurgungdan so'ng har galgidek ko'nglimiz ravshan tortdi. Xorazmlik o'quvchilar bilan ijodiy hamkorlikka esa hamisha tayyormiz.

Yusuf ABDULLAYEV yozib oldi



Aziz o'quvchilar!
«TONG YULDUZI»
gazetasiga
2017-YIL UCHUN OBUNA

mavsumi davom etmoqda!
Siz maktab kutubxonasi
yoki uyingizga yaqin aloqa
bo'limlarida obuna
bo'lishingiz mumkin.

✓ Nashr ko'rsatkichi - 198

KASB SAODATI

Gulsara Abduraimova ilg'or pedagog sifatida zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda yosh avlodni barkamol voyaga yetkazishda o'z hissasini qo'shib kelayotgan tajribali pedagoglardan.

Toshkent viloyati, O'rtacha Chirchiq tumanidagi 28-umumta'lim maktabida o'zbek tili fanidan saboq berib kelayotgan ustoz faoliyati davomida 250 dan ortiq ko'rgazmali qurollar, 50 dan ziyod slaydlar yaratdi. Mohir muallima «Ustoz – shogird» an'anasi asosida tumandagi 30 nafarga yaqin yosh o'qituvchilarga ilg'or ish uslublarini o'rgatib kelmoqda. Izlanuvchan pedagog tashabbusi bilan maktabda «Yosh tilchilar» to'garagi tashkil etilgan. To'garak a'zolari hozirgi kunda o'zbek tilida chop etilgan ko'plab badiiy asarlarni mutolaa qilish barobarida adabiy til normalarini o'zlashtirmoqda. Ayni chog'da, bu sa'y-harakatlar o'z samarasini bermoqda. O'quvchilardan Z. Buxarboeva viloyat olimpiadasida faxrli o'rinni egaladi. 2014 – 2015-o'quv yilida 6-sinf o'quvchisi B. Maratova va 7-sinf



o'quvchisi D. Bozorboeva «Bilimlar bellashuvi» viloyat bosqichida 1-o'rinni qo'lga kiritib, Respublika bosqichida faol ishtirok etishdi.

Gulsara opaning mustaqillik yillari mam-lakatimizda ta'lim sohasida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlarning mazmun-mohiyatini targ'ib qilishdagi faol ishtiroki, ta'lim-tarbiya borasidagi samarali mehnati yuksak baholanib, fidoyi va jonkuyar pedagog «Xalq ta'limi a'lochisi» ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

NURBEK



42-modda. Har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi.

Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g'amxo'rlik qiladi.

KITOB O'QISH ZAVQI

Kitob o'qish bir umr o'rganiladigan mashg'ulotdir.

Gyote

Bugungi kunda internet, kompyuter, uyali telefon hayotimizning ajralmas qismiga aylangan bo'lsa-da, kitob eng muhim tarbiya vositasi sifatida o'z o'rnini aslo yo'qotmaydi. Zero, hamma davrlarda ham insonlarda kitobga, ma'naviy olamini boyitishga bo'lgan intilish yuqori bo'lgan.



Saodat Komilova Toshkent pedagogika kolleji Axborot-resurs markazida ishlagani bo'lsa, poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi 238-umumta'lim maktabining 6-«G» sinfida o'qiyotgan o'g'li Shohruh Mirzohidovda kitobga bo'lgan mehr erta uyg'ondi. Onasi endigina savodi chiqayotgan o'g'luga «U kim, bu nima?», «Bolalar ensiklopediyasi» kabi kitoblarni olib kelganida quvonganidan bolakay ularni yer-u ko'kka ishonmasdi. Keyinchalik, u badiiy kitoblarni ham qiziqib o'qiy boshladi. Yaqinda onasi O'zbekiston Milliy kutubxonasiga o'quvchilari bilan bormoqchiligi haqida gap ochganda, «meni ham olib boring», deb turib oldi. O'g'lini olib bormasa tinch qo'ymasligini sezgan onasi uning istagiga rozi bo'ldi.

Shohruh u yerda noyob kitoblarni, o'quv va lingafon xonalarini zavq bilan tomosha qildi. Elektron kutubxona va darsliklar borasida ma'ruzalarni berilib tingladi.

– Onajonim tufayli bu maskan bilan yaqindan tanishganimdan xursandman, – dedi quvonchini yashirolmay Shohruhbek. – Kitob o'qish insonga zavq bag'ishlashiga yana bir bor amin bo'ldim. O'quv zallarida turli adabiyotlarni qunt bilan o'qiyotgan, xorijiy tillarda bemaol muloqot qilayotgan opa-akalarimni ko'rib, kitobga yanada havasim ortdi, men ham ulardek bo'lishga ahd qildim.

Dilfuza NIZOMOVA,
Toshkent pedagogika kolleji o'qituvchisi.
Nodira NAZAROVA

ORASTALIK – GO'ZAL FAZILAT

Qiz bola oilaning zeb-u ziynati. Qizi bor xonadon hamisha fayzlidir. Agar u orasta, pazanda, shirins'o'z bo'lsa, nur ustiga a'lo nur bo'ladi. Chunki ular bo'lajak oila bekalaridir. Shu bois, qizlarimiz tarbiyasiga nafaqat oilada, balki ta'lim muassasalarida ham alohida e'tibor qaratiladi.

mavzu, pazandalik kabi shartlarda o'z iste'dodlarini namoyish qilishdi.

Maktabning ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor

o'rinbosari Samira Rahimova, mehnat fani o'qituvchisi Muqaddas Ishonxo'jayeva, otanonalar qo'mitasi raisi Ra'no Kenjayeva, ustoz Qurbongul Ro'zmetova kabi hakamlar hay'ati zukko, bilimdon qizlarning har bir chiqishini munosib baholab borishdi. Tanlovda Risolat eng orasta qiz deb topildi va keyingi bosqichga yo'l oldi. Bu kabi ibratli tadbirga bosh bo'lgan sinf rahbari Nargiza Tolibjono-

Yaqinda poytaxtimizning Mirzo Ulug'bek tumanidagi 49-umumta'lim maktabida «Orastalik – go'zal fazilat» deb nomlangan tadbir bo'lib o'tdi. Unda maktabning orasta qizlari ishtirok etishdi. Ayniqsa, 4-«A» sinf o'quvchilaridan Aziza, Farangiz, Samira, Madina, Risolat, Zaynab kabi o'quvchilar tanishish, erkin




vadan barcha ishtirokchilar xursand bo'lishdi.

Nozima JAVHAROVA

Bur yuk ehtirom

Mamlakatimizning Birinchi Prezidenti Islom Karimov shoirga O'zbekiston Qahramoni unvonini topshira turib: «Abdul-lajon, mana, xalqimiz besh yuz yildan keyin ham Alisher Navoiy she'rlarini qo'ldan qo'yamay o'qib-o'rganmoq-da.

Sizning ijodingiz ham hali necha yuz yillar davomida xuddi Alisher Navoiy Hazratlarinikidek sevib mutolaa qilinadi, ardoqlanadi», – deya lutf qilgandi.



Bir safar shoirdan: «Yozgan-laringizdan qanchasini yod bilasiz?» – deb so'rashganda, u: «Yozganlarimning hammasidan tashqari, endi yozadigan she'rlarimning ham yarmi-ni yod bilaman», – deya mutlaqo jiddiy ohangda javob bergan ekan.

Shohqalam adibimiz Odil Yoqubov: «Abdulla Oripov fenomeni hali oxirigacha ang-lanmagan bir timsoldir», – deya hayratlangan edi donishmand shoir ijodi qoshida. Zukko o'quvchi-ukalarimiz yaxshi bi-ladilarki, fenomen kalimasi g'ayrita-biiy, kamdan-kam uchraydigan noyob iste'dod egalari hi-soblanmish shaxslar-ga nisbatan qo'lla-niladi. Favqulodda aql-zakovat, beqiyos qobiliyat egalari bo'li-shadi ular. Abdulla Oripov, hech shub-hasiz, Alisher Navoiy Hazratlari kabi o'zbek millatining baxti, ja-hon ma'naviyati ola-mining gavhari, necha-necha yuz yillar davomida dunyoga bir marta keladigan chin iste'dod sohibi edi. Shoir she'rlarini o'qi-yotganda bu qadar go'zal, bu qadar mukammal, bu qadar quyma misralarni odam bolasi yozishi mumkinligiga ishinging kelmaydi. Haqqoniy va samimiy satrlar, satrlarda barq urib tur-gan Sharq donishmandligiga xos mantiq, teran mulohaza, hech qanday o'zanga sig'may-digan birda toshqin, birda mis-kin, birda ezgin ohanglardan larzaga tushasan, esankiray-san, entikasan, titraysan, ko'zlaringga yosh qalqadi. Bir-biridan tiniq va ta'sirchan tuyg'ular og'ushida xuddi Dav-lat Madhiyasini kuylayotgan chog'da qo'lingni ko'ksingga qo'yib ta'zim bajo qilganday beixtiyor ta'zimga chog'lana-

san, shoir dahosi qoshida. XX asrning 60-yillaridan boshlab o'zbek adabiyotida bu-tun boshli yangi sahifa ochgan, she'riyatni baland martabaga

tobning eng havasli sahifalar-iga aylandi. Gurunglari esa... O-o, bu gurunglar! Abdulla aka dilkash suhbatdosh sifatida ham barcha davralarning karvonbo-shisi edilar.

Suhbatlaridagi kamtarona samimiyat, sodda va adolatli mulohazalar, mantiqli



A. Ko'chimov: – Biz shoir Ab-dulla Oripovning suh-batlarini olish uchun tez-tez Do'rmon bog'iga oshiqardik. Ustoz bilan kechgan uchrashuvlar biz uchun katta hayot maktabi va ijod darsi bo'lgan.

ko'targan, xalqimizning badiiy tafakkurini yangi o'zanga burib yuborgan betimsol iste'dod egasi bo'lgan Abdulla Oripov Vatanning shonli o'tmishi, bu-guni, kelajagi, millat taqdiri, baxt-u saodati deb kuyunishlari alohida ehtiromga loyiq. Ulug' shoir, ayni chog'da, hayotda, jamiyatda bo'layotgan voqea-hodisalarga sinchkov qarashlari, chuqur mulohazalari, do'stlikka, oilaga katta mas'u-liyat ila yondashuvi bilan ham barchaga ibrat namunasi edilar-ki, bunday fazilatlar ham har kimga nasib etavermaydi. Yosh ijodkorlarga mehr-u mu-habbat, ayniqsa, cheksiz edi Abdulla akada. Qancha-qancha iqtidorli shogirdlariga «Oq yo'll» tilagani, har biriga jonku-yar muallimdek saboq bergani, mana endi ustoz-shogirdlik ki-

hazil-mutoyibalar, halol va hayo-tiy xulosalar, faylasufona masla-hatlar... Shoirning suhbatlarida ishtirok etganlar bundan keyin faqat va faqat ana shu gurunglar sog'inchi bilan yashaydilar. Abdulla Oripovda hammaga, xususan, yoshlarga, ayniqsa, adabiyotga ixlos qo'ygan iqtid-or egalariga namuna bo'lgulik yana bir xislat – mehnatkashlik fazilati mavjud ediki, bu xususa alohida so'zlamaslik mumkin emas. Zero, iste'dodning 99 foizi mehnatdir, deguvchi sohibnazar shoir ijodni qismat deb bildi. Va, buyuk bobomiz Ibn Sinoning:

«O'n olti yoshgacha o'rgandim, undan keyingilari o'shaning ustiga qo'yilgan g'ishtlardir», – degan hikmatiga amal qilib juda yoshligidan boshlab, umrining oxirigacha ilm izladi.

Abdulla Oripovdagi bilimga tashnalikni anglamoq uchun qir-ralari o'tkir toshlarga tirmashib, ming mashaqqatlar bilan bu-lutlarga yondosh cho'qqiga o'rmlab borayotgan alpinistni ko'z oldimizga keltirmoq kerak: qo'llar qontalash, kiyim-boshlar yirtilib-titilib ketgan, ko'zlar pe-shonadan oqayotgan achchiq terdan qip-qizil, oftobning olov tig'i yelkalarni kuydiradi. Al-pinist esa azob-uqubatlarning hammasiga chidaydi, tishlarini tishlariga mahkam bosgan ko'yi yuksakka, faqat yuksakka intiladi. Abdulla Oripov aqlini tani-gan kundan to umrining eng so'nggi lahzalariga dovur ana shu alpinist yanglig' yashadi: tinmay o'qidi, tinmay o'rgan-di, tinmay fikrladi, tinmay yoz-di. Dunyo tarixini, Mag'rib-u Mashriq falsafasini, qadim-gi va hozirgi zamon ilmlarini qunt bilan o'zlashtirdi. Shaxsiy kutubxonasida o'tirib, Suqrot-dan Ibn Sinogacha, Arastudan Beruniygacha, Ulug'bek, Xo-razmiy, Forobiy kabi bobo-larimizdan Gegel, Kant va Bekongacha, Dantedan Push-kingacha, Tolstoydan Odil Yo-qubovgacha, Bayrondan Er-kin Vohidovgacha bo'lgan eng mashhur allomalarning durdo-na asarlarini mutolaa qila-qila uzun tunlarni oppoq tonglarga uladi. Charxlanavergan quvvai hofiza shu darajada kuchaydiki, butun-butun dostonlar, kitoblar marjon donalaridek tizildi – muhrlandi uning xotira sahifala-rida. Faylasuf shoir o'zining butun ijodiy faoliyati davomida o'quvchilarga mehr-muhab-batdan saboq berdi, do'stlig-u sadoqatni ulug'ladi, Vatanni ardoqlash, millatni sevish ni-maligini, adabiyot va she'riyat nimaligini, iymon, e'tiqod nima-ligini anglatdi, tasavvur qilish nimaligini o'rgatdi.

Abdulla Oripov oramizdan ketdi. Ma'rifatli Sharq yana bir allo-masidan ayrildi.

«Mening baxtim – o'z xalqim-ga, o'z Vatanimga xizmat qil-ganimda!» – deya g'urur bilan aytgandi ulug' shoir.

Abdulla Oripovdek shoiri bor xalq baxtiyor va abadiydir.

Abdusaid KO'CHIMOV,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan
jurnalist, yozuvchi

«TONG YULDUZI» MEHMONDA

Hazrat Alisher

Navoiyning «Nasoyim ul-muhabbat» asarini qayta-qayta mutolaa qilaman va har safar yangi-yangi ma'nolar ummoniga g'arq bo'laman.

Shayx Najmiddin Kubro haqidagi rivoyatni o'qir ekanman, buyuk ajdodlarimizning Vatanga sadoqati, yurt uchun ko'rsatgan fidoyiliklaridan ajib iftixor tuyg'usini chuqur his etdim.

Rivoyat qilishlaricha, keksayib qolgan bobomiz og'ir yaralangan chog'larida dushman qo'lidagi bayroqni tortib olib, toptab tashlash uchun mahkam tutgan ekanlar. Halok bo'lganlaridan keyin dushmanlar o'n kishi bo'lib ham bu bayroqni qo'llaridan ajrata olishmabdi.

Kuni kecha poytaxtimizdagi 153-umumta'lim maktabining Gullola Rahimova rahbarligidagi 7-«V» sinf o'quvchilari o'tkazgan tadbirda ona Vatana bayrog'iga sadoqat ko'rsatib, yosh vatanparvar ekanliklarini namoyish etdilar.

Quvonarli jihati, sinfdagi 31 nafar o'quvchining barchasi o'ziga yuklatilgan vazifani yuksak saviyada bajardilar. Ular tufayli davra mehmonlari muqaddas bayrog'imiz, undagi moviy, qizil, oq va yashil ranglar anglatadigan ma'nolarini yana bir yodga oldilar. Navqiron yarim oy tasviri, 12 yulduzning tarixiy qadriyatlar, umrboqiy an'analar ramzi sifatida qadriliginu yana bir bor his etdilar.

Musiqajarangi ostida sahnaga bayrog'imiz olib kirilganida, butun borliq nurafshon bo'lib ketgandek bo'ldi. Davra ahlidagi o'z yurtiga nisbatan iftixor tuyg'usi jo'sh urganini kuzatish nihoyatda maroqli edi.



Yaqinda xizmat safari bilan Surxondaryo viloyatining Sariosiyo tumanidagi 3-umumta'lim maktabida bo'ldik.

Farog'at opa Normurodova rahbarlik qilayotgan mazkur dargohda 702 nafar o'quvchiga 47 nafar malakali o'qituvchi saboq bermoqda. Maktab o'quvchilari muntazam ravishda fan olimpiadasi va «Bilimlar bellashuvi»da faol ishtirok etib kelishadi. Jumladan, 2015–2016-o'quv yilida kimyo va chizmachilik fanlari bo'yicha o'tkazilgan olimpiadada Hulkan Tangriyeva va Jaloliddin Abdulhamidovlar viloyat bosqichida 2-o'rinni egallashdi.

«Bilimlar bellashuvi»ning viloyat bosqichida maktabning 6-sinf o'quvchisi Munavvar Mahmudova ona tili va adabiyot, Hojiakbar Tangriyev matematika fanlari bo'yicha 2-o'rinni, biologiya fanidan esa Sobir Eshmurodov 3-o'rinni egalladi.

Maktabda sinflararo «Zakovat» intellektual o'yini, «Kimning xati chiroyli?», «Kim ko'p she'r va maqol biladi?» musobaqalari, shuningdek, insholar, referatlar tanlovlari muntazam o'tkazib kelinmoqda.

Maskanda adabiyot bayrami doirasida adabiy-badiiy kecha uyushtirildi. Unda tumandagi barcha maktablardan iqtidorli o'quvchilar hamda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, shoir Axtamquli ishtirok etdi. Anjumanda ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari Feruza Jumayeva, Gulruxsor Qodirova hamda Yodgora Maqsudaliyevlar o'tib bergan ochiq darslar tuman ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari tomonidan tahlil qilinib, ijobiy baholandi.

Jamoliddin ABDULLAYEV

O'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ularni foydali mehnat, kasb-hunarga yo'naltirish masalasi barkamol avlod tarbiyasida muhim ahamiyatga ega.

Chilonzor tumanidagi 181-umumta'lim maktabida «To'garak ishlari va o'quvchilar bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil etish» deb nomlangan ochiq eshiklar kuni fikrimizning yaqqol dalilidir.

Maktabga kirib borar ekanmiz, foydalanamoyish etilayotgan o'quvchilar ijod namunalari dan ko'zimiz qamashdi. Besh yuz nafar o'quvchi tahsil olayotgan mazkur maktabga Mohidil Begmatova rahbarlik qiladi. Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Dilorom Jalilova boshchiligidagi o'quvchi qizlar mehmonlarni ildiq qarshilashdi.

O'quvchilar «Qiziqarli matematika», «Yosh musavvir», «Happy English», «Algoritm», kabi to'garaklarda bilim-malakalarini

oshirishmoqda. Ayniqsa, 8-«A» sinf o'quvchisi Robiya Muslimova rus tilidagi uzundan-uzun she'rni maromiga yetkazib o'qib, barchani qoyil qoldirdi. Dono Masharipova rahbar-



lik qilayotgan «Kichik teatr» a'zolari esa «Shum bola» asari asosida kichik sahna ko'rinishini tayyorlashibdi.

To'garaklarda ilm-salohiyatini oshirayotgan o'quvchilar bilan suhbatlashdik, fidoyi ustozlar olib borayotgan ishlardan ko'nglimiz to'lib, katta taassurotlar bilan qaytdik.

«... Aziz o'quvchilar! Bizlar o'qigan paytlarda bunday sharoitlar qayda edi? Sovuq, zax xonalarda o'qirdik. Maktabga peroli ruchka hamda siyohdon olib borardik. Partadoshim Ra'no mening siyohdonimdan foydalanardi. Ko'pincha «o'zing olib kel», deb urishib qolardik. Hozir o'sha kunlarni eslasam, qizg'anchilik qilganimdan uyalib ketaman»...



Bu xotiralar poytaxtimizning Olmazor tumanidagi 249-umumta'lim maktabida «Tong yulduzi» tahririyati xodimlari bilan bo'lib o'tgan uchrashuvda shoir Axtamquli tomonidan yodga olindi.

– Maktabimizga ijodkorlarni taklif etib, jonli muloqot uyushtirgan ustozlarimdan minnatdorman, – deydi biz bilan suhbatda 6-«G» sinf o'quvchisi Abdulloh Akbariy. – Ustoz shoirming birinchi yozgan «Bodomginam» she'rini berilib tingladik. Chop etilgan kitoblari, she'r yozish uchun nimalarga e'tibor berish kerakligi haqidagi savollarimizga batafsil javob oldik. O'zim ham «Vatan» nomli she'rinni o'qib berdim.

– Menga ingliz tili sahifasi muharriri tomonidan olib borilgan «Topishmoqlarni toping», «O'zingizni tanishtiring» kabi o'yin va topshiriqlar juda yoqdi, – deydi Abdullohning sinfdoshi Behzod Abdurahmonov. – Til o'rganish foydaliligini ustozlarimiz ko'p aytyshadi. Shu bois, ingliz tili fanini puxta o'rganyapman. Berilgan savollarga hozirjavoblik bilan javob berganligim uchun tahririyat xodimlari menga esdalik sovg'asi taqdim qilishdi.

Shuningdek, 6-«B» sinf o'quvchisi Abdullo Rahimovning sportda erishgan yutuqlari haqida to'liqlanib gapirishi barchaning havasini keltirdi. Hojiakbar Olimjonov, Komila Qobilova, Hasan-Husan Inoyatovlarning topqirli yig'ilganlar e'tirofiga sazovor bo'ldi. Ular ham gazeta va taqvim bilan taqdirlanganliklaridan xursand bo'lishdi.

O'quvchilar bugungi ma'naviy-ma'rifiy tadbirdan mamnun bo'lishganini ta'kidlab, uchrashuvga kelgan ijodkorlarga o'z minnatdorchiliklarini bildirishdi.

Sahifani o'z muxbirlarimiz tayyorlashdi



«Tiny Stories» week
(«Kichik hikoyalar» haftaligi)



Uzbekistan joins over 200 prominent writers including novelists, playwrights and poets, for a global literary campaign «Tiny Stories» week.

A number of known Uzbek writers and young enthusiasts join the campaign to highlight the world they want for children. «A word «Child» has the same meaning to all nations of the world. This word brings joy

and development», said Uzbek writer O'ktam Mirzayorov.

«We will continue to support the government to ensure that all children of Uzbekistan have an equal and fair opportunity to live in a world of dignity, in a world fit for children. These Tiny Stories will remind all of us that we must sustain our commitment to all children to realise all their rights», said Sascha Graumann, UNICEF Representative in Uzbekistan.

Parts of speech

What is an Adverb?

Ravish deb ish-harakatning qanday, qayerda, qachon sodir bo'lganini bildiruvchi so'zlarga aytiladi.

He works hard. – U qattiq ishlaydi.
She lives here. – U shu yerda yashaydi.

Ravish, sifat yoki belgi va xossalarni ham ifodalashi mumkin:

He is a very good pupil.

Ravishlarning turlari:


O'rin-joy ravishlari:	Payt ravishlari:
here – shu yerda, bu yoqqa	now – hozir, endi
there – u yerda	when – vaqtida, paytida
where – qayerda, qayerga	then – so'ngra, o'shanda
inside – ichkarida, ichkariga	today – bugun
outside – tashqarida	yesterday – kecha
above – yuqorida	tomorrow – ertaga
below – pastda	before – oldin, ilgari
somewhere, anywhere – biror joyda	lately – yaqinda
nowhere – hech qayerda	recently – yaqinda, shu kunlarda
	once – bir kuni, ever – biror vaqt,
	never – hech qachon
	always – har doim
O'Ichov va daraja ravishlari:	Holat ravishlari:
much – ko'p, little – oz, very – juda, too – o'ta, so – shunday, enough – yetarli, hardly, scarcely – arang, nearly/almost – deyarli.	well – yaxshi, fast/quickly – tez, slowly – asta, quietly – tinch, easily – oson

Homework: Make the sentences to adverb and send us. We'll press the best ones.

Your teacher DINORA

Brain training
(Aql mashqi)

Study the following numbers and answer the questions.



1. Name the four corner numbers.
2. How many numbers are there which have the same digit repeated?
3. How many square numbers are there?
4. How many odd numbers are there?
5. How many numbers are between 50 and 60?
6. What is the highest number?
7. What is the lowest number?

Dono AHMEDOVA

The answer of kindness
(Yaxshilikning javobi)

Short story

It had snowed very hard. Ravshan and Eldor, who were visiting Grandma in the country, had to stay in the house all day.

When they went to bed it was still snowing, and every time they woke up during the night, they could hear the wind sighing and whistling around the house.

But the next morning the sun was shining brightly. Such a glorious day!

«It looks as if they had been sprinkled with gold dust and diamonds» exclaimed Ravshan.

«Oh Grandma! Please do hurry breakfast. We are going out to build a fort» cried the boys, bursting into the dining-room.

Grandma smiled and told them to eat a good breakfast, for building a fort was hard work.

The fort did not grow very fast, for they had to stop so often to snow-ball each other.

When Grandma called them in to dinner they wondered where the time had gone since breakfast.

After dinner, Ravshan was looking out of the window, when he spied two little birds cuddled up on a branch of a pine tree.

«Oh, Eldor! Come here» he called. «See those poor little birds. They look half frozen and so hungry».

«Let us get some food from Grandma and throw it out to them» said Ravshan. «Perhaps they will find it».

The little birds were soon chirping and flying about merrily and Ravshan said it sounded as if they kept saying, «thank you».

Will not other little children be as kind as Ravshan and Eldor?

Ibrohim FAYZIRAHMONOV,
the pupil of Republic radio and television college

Wordsearch puzzle

Find and circle 12 hidden words in this «SHOPS» puzzle.

C	R	S	H	E	L	F	S	T	I	C	S	W	T	I	L	L
A	V	U	K	O	S	J	Q	B	Y	I	T	R	X	Z	D	A
S	K	S	A	H	R	O	B	B	A	S	K	E	T	S	A	L
H	W	B	H	A	I	G	M	L	F	W	V	S	E	O	C	T
I	C	K	A	O	D	L	W	A	L	L	E	T	K	D	L	R
E	B	Z	T	A	P	B	M	U	V	H	Y	L	M	V	C	O
R	E	W	E	I	G	F	T	S	A	L	E	I	N	G	M	L
G	H	L	P	L	Q	R	O	T	X	Z	Y	N	V	F	C	L
C	R	E	D	I	T	C	A	R	D	C	K	G	B	I	S	E
B	O	B	A	D	T	E	N	N	I	S	E	N	Q	E	T	Y
S	C	A	L	E	A	K	E	Q	N	Q	T	Y	W	X	C	O
F	N	E	K	C	O	L	N	Z	B	J	R	C	S	D	E	A
A	R	D	H	E	H	Y	B	P	N	D	N	C	N	B	G	Q
C	H	E	Q	U	E	N	J	I	O	C	M	G	C	A	S	H

Made by: Zohida TURSINOVA,
teacher of school №31 in Mirobod district

Riddles
(Topishmoqlar)



You might see it in the sky,
But it is not the moon.
It is what would make you wet,
If there was a monsoon.



If you have one of these,
Then dry you will remain.
Hold it above your head,
It will keep off the rain.

Kumush TURG'UNOVA,
the pupil of school №54 in O'rta Chirchiq district, Tashkent region

SHE'R — KO'NGILNING DURI-U GAVHARI

Dunyo yaralibdiki, uning go'zalligi odamzodni hech qachon befarq qoldirmagan. Har kim o'zi tug'ilib o'sgan ona Vatani qiyos izlaydi. Bobokalonimiz Hazrat Navoiydan tortib, endigina qo'lga qalam olgan ijodkorgacha, maqsadi ezgulikni ulug'lashdir. Tahririyatimizga yog'ilib kelayotgan maktablarning aksariyatida farzandlarimizni hayratlantirgan go'zallikning beg'ubor surati o'z aksini topgan. Bolalar nigohi bilan dunyoni ko'rishning o'zgacha gashti bor. Eng buyuk yozuvchilarimizning ham ijodidagi baland pog'ona bolalik bilan bog'liq bo'lgan voqealardir. Keling, yosh ijodkorlarimizning she'rlarini birgalikda o'qib ko'raylik:



Xonqalik Akbar Qutlimurotov sevimli yozuvchisi Xudoyberdi To'xtaboyev xonadonida

Toshkent shahar, Olmazor tumanidagi, 119-umumta'lim maktabining 1-sinf o'quvchisi Kamronbek Abdullayev «Maktabim» nomli she'rida:



Maktabim faxrim mening, Quchog'i keng bir jahon. Kitob — oftobim mening, Ustozlarim mehribon...

Siz Kamronbekning she'rini o'qib, uning quchog'i bir jahon maktabini ko'z oldingizga keltirgan bo'lsangiz, ajabmas. Samarqand viloyati, Qo'shrabot tumani 81-umumta'lim maktabining 4-sinf o'quvchisi Shahrizoda Nazarovaning «Kapalak» she'rida:

Kapalakjon — kapalak, Buncha go'zalsan. Go'zallikda sen hatto, Oydan o'zarsan.

Shahrizoda kapalakning qisqa va mas'uliyatli umriga go'zallikni hamroh etadi. Xorazm viloyati, Xonqa tumanidagi 49-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi Akbar Qutlimurotov «Mening Vatanim» she'rida yozadi:

Tug'ilganman bag'ringda, Ulg'ayaman mehringda. Mehrlisan chamanim, O'zbekiston — Vatanim...

Toshkent shahar, Yakkasaroy tumanidagi 118-umumta'lim maktabining 6-sinf o'quvchisi, Sevarbek Elboyev «Ukamga» nomli she'rida:

Abbos degan ukam bor, Har narsadan xabardor. Talashib o'ynar futbol, Teppan to'pi bo'lar gol...

Navoiy viloyati, Navoiy shahridagi 2-akademik litseyning 1-bosqich o'quvchisi Umida Sulaymonova «Bizning yoshlar» nomli she'rida yozadi:

Yoshlarga tosh otmangiz, Unib-o'ssin bezavol. Ona Vatani bag'rida, Quv nab yursin bemaol.

Xuddi shunday qisqa, rangin va mazmunli satrlarni Jizzax viloyati, G'allaorol tumanidan Go'zal Yusupovanning «Go'zalsan, hayot», Jizzax tumani Sanoat kasb-hunar kolleji o'quvchisi Mohinur Ravshanqulovanning «Boychechak», «Atirgul», Jizzax shahridagi 8-umumta'lim maktabining 6-sinf o'quvchisi Mahliyo Shodiyevaning «Islom bobom», Xorazm viloyati, Xonqa tumanidagi 40-umumta'lim maktabining 6-sinf o'quvchisi To'xtajon Quryazovanning «Bahor keldi», shu tumanning 29-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi Gulal Husinovaning «Alvido», Qashqadaryo viloyati, G'uzor tumanidagi 18-umumta'lim maktabining 6-sinf o'quvchisi Farzona Suyunovanning «Yangi yil», Samarqand viloyati, Paxtachi tumanidagi 43-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi Dilnoza Tog'ayevaning «Shukrona», «Vatan», Farg'ona viloyati, Beshariq tumanidagi 3-IDUM 6-sinf o'quvchisi Nafosatxon Abdurayimovanning «Mustaqil Vatani» nomli she'rlarida ham ko'rish mumkin. Bu ijodkorlar ijodini yanada rivojlantirishi uchun o'z ustida hali ko'p ishlashiga to'g'ri keladi.

She'r yozishni niyat qilib qog'oz qoralayotgan yana bir guruh ijodkorlarimiz borki, ularning yozganlari hali she'rning qonun-qoidalarga to'liq javob bermasa-da, o'z mashqlarini bizga yo'llaydilar. Buxorolik Shohjahon Alisherov «Salom, maktab» nomli she'rida:

Ta'tilni o'tkazdik, Maktab sari yuzlandik. Salom, maktab jon maktab, Kitoblarning ko'p maktab. Seni yaxshi ko'raman, Ustozlarni sog'inganman...

Shohjahon ko'proq she'riy kitoblarni mutolaa qilsa, o'z ustida tinimsiz ishlasa, kelgusida go'zal she'rlar muallifi bo'lishi, shubhasiz. Xuddi shunday she'riy maktablarni qashqadaryolik Aziza Rashidova, Jasur Izzatov, samarqandlik Elyor Abdullimov, buxorolik Ortiqjon Olimjonov, Zamira Erkinova, farg'onalik Mavludaxon O'rmonova, Robiyaxon Madaminovalar yo'llashgan. Ular o'z so'zi va yo'lini izlayotgan ijodkorlar sarasiga kiradi.

Ijod yo'lini tanlagan yoshlarimiz ko'pligi bizni quvontirdi. Ijodning sehrli olamiga sayr etib yurish baxti dilingizni hech qachon tark etmasin, degimiz keldi.

AXTAMQULI



Bugun yakshanba. Shuhratjon uyg'onganida, oila a'zolari jam bo'lib nonushta qilishayotgandi. Ukasi bilan uni esa uyg'otishmabdi. Barchalarining dimog'lari chog'.

Sekin turib kiyinayotgandi, Botirjon ham uyg'onib ketdi.

— Akajon, bugun bog'chaga siz olib borasizmi?

— Bugun dam olish kuni.

Bog'chaga bormaysan.

Aka-uka yuvinib, das-turxon tepasiga kelishdi.

— Nimaga bizni uyg'ot-madinglar?

O'g'illarini ko'rgan Shoiraning opa:

— Dam olish kuni to'yib uxlab olinglar, devdim. Nonushta qilib olinglar, biz esa saylovga borib kelamiz.

Kenjatoy Botirjon Halima xolaga mehribonchilik qilib:

— Buvijon, sizni ovora qilmay, o'rnigizga o'zim chopqillab borib kelaymi? — dedi.

Hammalari kulib yuborishdi.

— O'rgilay, o'zimgiz mehribon nabi-ramdan. Bolajonim, sen hali yoshsan,



Oila quvonchi

(Hikoya)

voyaga yetganingda borasan. Saylovda har bir fuqaro o'z insoniylik burchini bajarishi kerak. Yurtimiz ravnaqi, xalqimiz farovonligi uchun xizmat qiladigan munosib nomzodga ovoz berib kelamiz.

Kattalar o'tlanishib saylovga ketishdi. Botirjon akasini so'roqqa tutdi.

— Aka, saylov degani nima? Shuhratjon sevimli gazetasi «Tong yulduzi»da «Saylov —2016» rukni ostida yoritilgan maqolani eslab, ukasiga sodda tarzda tushuntirib berdi.

— Nega bizni ham olib ketishmadi?

— Biz hali yoshmiz. 18 yoshga qachon to'lishimizni hisoblab ko'r-chi!

Botirjon darrov barmoqlarini bukib, sanashga tushib ketdi.

— Akajon, topdim. Siz 7, men esa 12 yildan keyin saylovga borarkanman.

— Barakalla, o'zimgizning ukajonim. Kallang zo'r ishlaydi. Maktabga borsang, matematikadan besh baho olasan-da. Kel, endi kattalar kelgunicha, uylarni yig'ishtirib qo'yamiz.

— Bo'пти. Aytganingizni qilsam, «Lego»dan robot yasab berasizmi?

— Albatta.

Aka-uka dasturxonni yig'ishtirishdi, uylarni changyutkich bilan chinnidek qilib tozalashdi. Oyjonlari kelsa, xursand bo'ladilar-da.

Dilorom HOTAMOVA

«UMID NIHOLLARI — 2017»

Yur-timizdagi uch bosqichli musobaqalar tizimi yoshlarni sportga keng jalb etish, mahoratli sportchilarni tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. Ikk bosqich «Umid nihollari»da yosh sportsevarlarining ishtiroki yil sayin ortib borayotgani bilan ahamiyatlidir.



Yaqinda Navoiy viloyati Konimex tumani XTMFMTE bo'limiga qarashli umumta'lim maktablari o'rtasida «Umid nihollari – 2017» sport musobaqalarining maktab va 1 – 4-sinf o'quvchilari o'rtasidagi tuman bosqichi bo'lib o'tdi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'quvchi va talaba yoshlarni sportga jalb qilishga qaratilgan uzluksiz respublika sport musobaqalarini o'tkazish to'g'risida»gi Qaroriga asosan «Umid nihollari» sport musobaqasining maktab, tuman (shahar) va viloyat bosqichini yuqori saviyada o'tkazish, ushbu musobaqalar orqali o'quvchilarda jismoniy tarbiya va sportga bo'lgan havas va intilishni, jamiyatimizda sog'lom turmush tarzi tamoyillarini kuchaytirish, milliy g'urur va iftixor tuyg'usini oshirish, shuningdek, tuman XTMFMTE bo'limining 2016-yil 7-sentyabrdagi «Umid nihollari – 2017» maktab va tuman bosqichi musobaqalarini o'tkazish to'g'risida» buyrug'iga asosan chora-tadbirlar rejasi belgilab olindi.

Ushbu buyruq bilan tasdiqlangan jadval asosida shu yilning oktyabr oyida maktab bosqichi hamda noyabr oyida o'quvchilarning kuzgi ta'til kunlari 1 – 4-sinf o'quvchilari o'rtasida hudud va tuman final bosqichi 5 – 9-sinf o'quvchilari o'rtasida sportning futbol, basketbol, voleybol, qo'l to'pi, dzyudo, kurash turlari bo'yicha hudud bosqichlari o'tkazildi.

1 – 4-sinf o'quvchilari o'rtasida sportning mini futbol, yengil atletika, badiiy gimnastika, shaxmat, shashka turlari bo'yicha hudud va tuman final bosqichida jami 666 nafar, shundan 252 nafar qiz bolalar ishtirok etishdi.

Ushbu musobaqalarda 12-umumta'lim maktabi yengil atletika, mini futboldan 2-umumta'lim maktabi, shashka bo'yicha 40-umumta'lim maktabi, shaxmatdan 2-umumta'lim maktabi, badiiy gimnastika turi bo'yicha 2-umumta'lim maktabi o'quvchilari faxrli 1-o'rinlarni egallashdi.

Sportning boshqa turlari bo'yicha 5 – 9-sinf o'quvchilari o'rtasida hudud va tuman final bosqichlarini qishki ta'til kunlari jadval asosida o'tkazish rejalashtirildi.

Sportning har bir turi bo'yicha g'olib bo'lganlarni tuman XTMFMTE bo'limi hamda «Yoshlik» JTSJ tuman bo'linmasi tomonidan esdalik sovg'alari va diplomlar bilan taqdirlandi.

Shukrullo G'ULOMOV

Yusuf-bek Mustaqimov shaxmat bo'yicha viloyat chempioni bo'lishida, albatta, otasi – jismoniy tarbiya o'qituvchisi Mansur aka Qosimovning hamda onasi – tarix fani o'qituvchisi Salomat opa Anvarovanning hissasi katta.



YOSH FUTBOLCHILARIMIZ Malayziyada tengsiz

Joriy yil Toshkentning «Lokomotiv» futbol jamoasi uchun tom ma'noda omadli yil bo'ldi, desak xato bo'lmaydi. Boisi, ushbu klub uzoq yillik sa'y-harakatlardan so'ng nihoyat, O'zbekiston chempionligini qo'lga kiritdi.

Bu xursandchilikdan ilhomlangan yosh temiryo'lchilar Malayziya poytaxti Kuala Lumpur shahrida o'tkazilgan xalqaro «1-ST AFZA GRASS ROOT LEAGUE» musobaqasida o'zlarini nimamalarga qodir ekanliklarini namoyish etib, yakunda bosh sovringa sazovor bo'ldilar. 12-14 yoshli charmtop ustalari ishtirokida o'tkazilgan ushbu nufuzli turnirning guruh bosqichini muvaffaqiyatli yakunlagan futbolchilarimiz hal qiluvchi o'yinlarda ham bir-biridan ajoyib g'alabalarni qo'lga kiritishdi.

Guruhdan keyingi bosqichga yo'llanma olgan 4 ta jamoa o'zaro o'yinlar o'tkazdi va ana shu bahslar natijasiga ko'ra, musobaqa g'olibi aniqlab olindi. Hal qiluvchi bellashuvlarda 2:1, 1:2 hamda 2:0 natijalarini qayd etgan «Lokomotiv U-12» hamda Malayziyaning «Bukit Jalil U-12» jamoalari turnir chempioniga aylanishdi.

Shuningdek, «Lokomotiv» jamoasi tarbiyalanuvchilari Osiyo Futbol Konfederatsiyasi bosh qarorgohiga tashrif buyurib, tashkilot muzeyini tomosha qilish imkoniga ega bo'lishdi.

O'ylaymizki, ushbu musobaqa yosh futbolchilarimiz qalbida hali uzoq vaqt saqlanib qoladi.

Sa'dullo TURSINOV

Buxoro viloyati, Kogon tumanidagi 1-umumta'lim maktabini sportsevarlar maskani, desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi. Ushbu umumta'lim maktabining deyarli har bir o'quvchisi sport bilan shug'ullanadi.

SPORTSEVARLAR MASKANI



Behruz Narziyev 6-«B»ning sinf saradori. U sportning o'zbek jang san'ati bilan shug'ullanadi. Tuman, viloyat musobaqalarida g'oliblikni qo'lga kiritmoqda. Uning sinfdoshlari Donoxon Islomova, Feruza G'aybullayevani gimnastikachi qizlar, deyishadi. Ular ham ko'plab musobaqalarning faol ishtirokchilari sanaladi. Yosh sportsevarlar bilan suhbatlashganimizda, ular «sport bizni sog'lom, kuchli va qat'iyatli qilib kamolga yetkazadi», deyishdi faxr bilan.

— Oilada akalarim bilan tez-tez shaxmat o'ynaymiz. Ularni yutish menga oson bo'lmaydi. Shunda hali o'z ustimda ko'p ishlashim kerakligini tushunaman, — deydi tengdoshingiz Yusufbek. — Har bir yutug'imdan sinf rahbarim matematika fani o'qituvchisi Mahbuba opa G'afurova juda sevinadilar.

KATTA TANAFFUS

Salom, bolajonlar! Mana, siz bilan yana «Katta tanaffus»da uchrashib turibmiz. Maktabda o'qishlaringiz qalay? Fanlardan «5» baho olib, ota-onangiz va ustozlaringizni xursand qilyapsizmi? Barakalla! Tengdoshlaringizning bu sahifada sizlar bilan gurunglashadigan gaplari ancha yig'ilib qolibdi. Navbatni ularga berib, sizning topqirliq-u qiziqishlaringizni bir sinab ko'rmoqchimiz.

TOPISHMOQLAR

Husnga qo'shadi zap husn,
Tezroq ayting-chi, sirin?



Bilim beradi bizga,
Har bir o'g'il-u qizga.
Birdek yosh-u qariga,
Katta-kichik bariga.

Sevinch ALIQULOVA,
Jizzax viloyati, G'allaorol tumanidagi
«Barkamol avlod» bolalar ijodiyot markazi a'zosi

Dam olishni istab qolsangiz, albatta, o'rindiqlik qidirib qolasiz. Bugun sizlarga dunyo dizaynerlari tomonidan yaratilgan ajoyib o'rindiqlar ketma-ketligini namoyish qilamiz. Ularni tomosha qilib, ko'zlaringiz quv naydi. Ba'zi o'rindiqlar shunchaki dam olish uchun qurilgan bo'lsa, ba'zilari aniq maqsadga ega.



SHAHNOZA chizgan rasmlar

Farg'ona viloyati, Beshariq tumanidagi 27-umumta'lim maktabi o'quvchilarining chizgan rasmlaridan mo'jazgina ko'rgazma tashkil etdik.

«QISHLOQDA KUZ»



Muzaffar ABDUNAZAROV,
6-«A» sinf o'quvchisi

«BOG'DAGI SAYR»



Suhrob TOSHPOLATOV,
6-«A» sinf o'quvchisi


«TULPORLAR»



Hamidullo ABDULLAEV,
8-«B» sinf o'quvchisi

1. Narsa-hodisalarni o'rganuvchi fan.
2. Moziy sirlarini o'rganuvchi fan.
3. Hunar o'rgatuvchi fan.
4. O'simliklar olamini o'rganuvchi fan.
5. Fanlar shohi.
6. Materiklarni o'rganuvchi fan.
7. Yozuvchi va shoirlar ijodini o'rganuvchi fan.
8. Inson huquqlari haqidagi fan.
9. Kompyuter texnologiyalari haqidagi fan.
10. Moddalarni o'rganuvchi fan.
11. Jonivorlar hayoti haqidagi fan.
12. Kuy va navo haqidagi fan.
13. Iqtisodni o'rgatuvchi fan.

BO'SH O'TIRMA, BOSH QOTIR!



Laylo MANSURJONOVA,
Qashqadaryo viloyati, Kitob tumanidagi
4-umumta'lim maktabining 9-«B» sinf o'quvchisi

YONG'INDAN SAQLANING

Bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri tilsiz yov bo'lgan yong'inlar oldini olish, xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash, shuningdek, ogohlik va hushyorlikni oshirishdan iborat. Ayrim oilalarda e'tiborsizlik va mas'uliyatsizlik, tabiiy gazdan foydalanishda yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilmaslik oqibatida yong'in bilan bog'liq ko'ngilsizliklar kelib chiqmoqda.

Har bir fuqaro kundalik turmushda yong'in xavfsizligi qoidalariga amal qilib borsa, turli ofatlarning oldi olinadi. Ha, tilsiz yov bo'lgan olov fasil, vaqt, joy tanlamaydi. Kutilmaganda ozgina ehtiyotsizlik, beparvolik oqibatida ro'y beradi.

Yong'in xavfsizligi qoidalariga qat'iy rioya qilsangiz, davlat va shaxsiy mulkingizni, uy-joyingizni yong'indan asragan, shuningdek, yaqinlaringiz xavfsizligini ta'minlagan bo'lasiz.

M. TOSHTMIROV,
poytaxtimizning Shayxontohur tumani IIB YOXB inspektori

XONDA

Suhrob Orifga aytdi:

– Orif, yur shaxmat o'ynaymiz.

Orif ham so'radi:

– Necha marotaba o'ynaymiz?

– Yutguningcha o'ynaymiz. Qachon yutsang, o'shanda to'xtatamiz.

– Voy, bor-yo'g'i bir marotaba o'ynaymizmi? – dedi Orif.

Muzaffar AHMEDOV



Mana, katta tanaffusga belgilangan vaqt ham tezda o'tib ketdi. Siz oltinga teng vaqtinigizni zoye ketkazmang, bo'sh qoldingizmi, kitob, gazeta o'qing. Mutolaa har vaqt insonga faqat zavq bag'ishlaydi. Sizlardan yana maktublar kutib qolamiz. Yana «Katta tanaffus»da gurunglashguncha xayrl!

«Katta tanaffus»ga
qo'ng'iroqni Ozoda
opangiz chaldi

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati
Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga
qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondi.

Bosh muharrir
Feruz ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot
va axborot agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil
2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAYATI:
Dilshod KENJAYEV,
Svetlana INOMOVA,
Bahodir G'ANIYEV,
Murtazo SULTONOV,
Vahobjon RAJAPOV,
Zikrilla TESHABOYEV,
Feruz JALILOVA,
Feruz MATYOQBOV
(mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir
Jamoliddin ABDULLAYEV
Rassom
Feruzbek KAMOL o'g'li
Sahifalovchi-dizayner
Shahobiddin
MAXMADIYEV
Fotomuxbir
Zubayda
MAMATQULOVA

«O'zbekiston» NMIU
bosmaxonasida chop etildi.
Manzilimiz va bosmaxona
manzili:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100011.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz
Adadi – 25441
Buyurtma – S 7593

Tahririyatga kelgan barcha
qo'lyozmalar tahrir qilina-
di, mualliflarga qaytaril-
maydi.
Shakli A-3, 2 bosma taboq.
Bahosi kelishilgan narxda.
Gazeta haftaning dushan-
ba kuni chop etiladi.
Topshirish vaqti – 18:00
Topshirildi – 18:00
Tel./faks:
(99871) 244-63-08